



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

**AYOLLAR NUTQIDA KONNOTATSIYA VA MUROJAAT
BIRLIKLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
PRAGMATIC ASPECTS OF CONNOTATION AND ADDRESS FORMS IN
WOMEN’S SPEECH**

10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/CFWP3160

Abdurasulova Dilnoza Qodirjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti

Abdurasulovad185@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek ayollari nutqida konnotatsiyaning namoyon bo‘lishi, murojaat birliklari orqali ifodalanadigan ijobiy va salbiy baho, emotsional-ekspressiv vositalarning nutqiy-pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Tilshunoslikda konnotatsiya nazariyasi, uning lingvistik, psixolingvistik va semiotik yo‘nalishlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *konnotatsiya, ayollar nutqi, murojaat birliklari, pragmatic maqsad, baho, emotsional-ekspressiv ma’no. adresant, adresat.*

Annotation. *The article analyzes the manifestation of connotation in Uzbek women’s speech, focusing on the positive and negative evaluations expressed through forms of address, as well as the speech-pragmatic functions of emotional and expressive means. The study also highlights the theory of connotation in linguistics and its linguistic, psycholinguistic, and semiotic approaches.*

Keywords: *connotation, women’s speech, forms of address, pragmatic purpose, evaluation, emotional-expressive meaning, addresser, addressee.*

So‘zning konnotativ ma’nosi (ayrim adabiyotlarda emotiv, emotsional-ekspressiv ma’no [Ҳақимова, 2008 : 28]) ijobiy yoki salbiy emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lishi mumkin.

Bir tushuncha bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’no yoki so‘zning to‘g‘ridan-to‘g‘ri, lug‘aviy ma’nosidan tashqari, qo‘shimcha ma’nosi tilshunoslikda **konnotatsiya** deb ataladi. Ma’lumki, konnotatsiya tushunchasi (lotincha cin.con – birga, notare – belgilamoq) [Ҳожиёв, 1985 : 51-52] til birliklarining ekspressivlik xususiyatini aks ettiruvchi pragmatik hodisa bo‘lib, adresantning predmetga, narsa va hodisalarga, adresatga muloqot jarayonidagi vaziyatga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalaydi. Konnotatsiya lingvistik hamda ekstralingvistik vositalar orqali hosil qilinadi. [Максимова, 2012 : 25]

Konnotatsiya barcha tillarda kuzatiladigan universal hodisasidir. Konnotatsiya tor ma’noda amaliy qo‘llanishdagi tilning ekspressiv-emotsional imkoniyatlarini aks ettiradi. Konnotatsiyaning tilning amaliy qo‘llanishi jarayonida nutq subyektini bilan bog‘liq holda yuzaga chiqishi, kontekst bilan aloqadorligi pragmalolingvistikaning tadqiqot obyekti ekanini ko‘rsatadi. [Курбонова, 2008 : 161]

Tilshunoslikda XIX asr oxiridan boshlab *konnotatsiya* atamasi nutqning pragmatik jihati bilan bog‘liq holda o‘rganila boshlandi. Zamonaviy tilshunoslikda konnotatsiyaning ko‘plab ta‘riflari mavjud. Bu atama turli jihatlar asosida talqin qilinadi.

Xususan, V.N.Teliya [Телия, 1981] turli mualliflarning konnotatsiya haqidagi fikrlarini umumlashtirib, mazkur muammoning o‘rganilishini uchta yo‘nalishga ajratib ko‘rsatadi.

1. *Semiotik yo‘nalish* konnotatsiyani denotativ sema xizmat qiladigan mazmun sifatida ko‘rib chiqadi va bu mazmunning o‘zini matndan “ayirish” natijasida aniqlash mumkin. Bu yo‘nalishga L.Yelmslev, R. Bart ishlarini ham kiritish mumkin. R. Bart [Барт,1975] “konnotativ tizim” atamasini kiritib, uni konnotativ va denotativ sistema kabi guruhlariga ajratadi.

2. Konnotatsiyani o‘rganishning *psixolingvistik yo‘nalishi* assotsiativ va emotsional nutqning tashkil etilishi bilan bog‘liq. Bu yo‘nalishda konnotatsiya nutqni idrok etish xususiyatlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. [Леонтьев, 1971]

3. *Lingvistik yo‘nalish* bir nechta tarmoqlarni o‘z ichiga oladi:

a. *uslubiy yondashuvda* konnotatsiya deb ma‘lum turdagi so‘z ma‘nosining qo‘shimcha elementlariga aytiladi. Bular: ekspressiv, uslubiy, baho munosabatiga ajratiladi.

Konnotatsiyaning stilistik tushunchasi *pragmatika* bilan bog‘liq bo‘lib, unda adresatning gapning mazmuni nima haqida ketayotganiga munosabati qayd etilishi nazarda tutiladi. Masalan, I.A.Sternin “konnotativ semantik komponent”ni tavsiflaydi va u “so‘zlovchining predmetga bo‘lgan munosabatini his-tuyg‘u va baho shaklida ifodalaydi” deb hisoblaydi. [Стернин, 1985]

Y.D.Apresyan “konnotatsiya so‘z bilan bog‘liq madaniy tasavvurlar va an‘analarni, ma‘lum bir jamiyatda hukmron bo‘lgan tegishli narsadan foydalanish amaliyotini va boshqa til omillarini aks ettiradi”, deb hisoblaydi. Shunga qaramay u bu tushunchaga nisbatan semantik assotsiatsiya” atamasini qo‘llaydi. [Апресян, 1995 : 67]

Ye.M.Vereshchagin va V.G.Kostomarov konnotatsiyani so‘zning milliy-madaniy o‘ziga xosligi bilan bog‘liq bo‘lgan “qo‘shimcha ma‘lumot” tushunchasi bilan bog‘laydilar. [Верещагин, 1980]

Konnotatsiya tushunchasi aniq va noaniq bo‘lib, bu atama turlicha talqin qilinadi. Tilshunos olimlar tomonidan konnotatsiyaning uslubiy, emotsional, madaniy, pragmatik, assotsiativ va boshqa jihatlari ko‘rib chiqilgan. Konnotatsiya semantikaning ekspressivlikni belgilovchi makrokomponenti bo‘lib, nomlash jarayonida voqelikni baholash sifatida paydo bo‘ladi. [Телия, 1986 : 7]

Ye.V.Yerofeeva [Ерофеева, 2005] mikro va makroidiom komponentlarini ajratadi, Konnotatsiyaning *makroidiom komponentlari* so‘zning tildagi makroidiomlarga - adabiy tilga, so‘zlashuv tiliga, xalq tiliga, shevaga mansubligidan dalolat beradi. *Mikroidiom komponentlarli* esa konnotatsiyalar so‘zning mikroidiomlarga (sotsilektlarga) - jargonlarga, argo va boshqalarga tegishlilikini ko‘rsatadi.

Ko‘pincha konnotatsiyaning tarkibiy qismlari bir-biri bilan kesishadi, go‘yo bir-birining ustiga qo‘yiladi. Har bir so‘zning turli kommunikativ sharoitlarda konnotatsiya komponentlari turlicha bo‘lishi mumkin. U yoki bu element kontekst, kommunikativ vaziyatga qarab birinchi planga chiqadi, ular turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, *aylanay, o‘rgilay* so‘zlari bir vaqtning o‘zida ham uslubiy, ham baholovchi, ham hissiy jihatdan bo‘yalgan. Ular nafaqat so‘zlovchining atalayotgan narsaga nisbatan muayyan munosabati va bahosini ifodalaydi, balki nutqiy muloqot sharoitlari bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Konnotatsiya nutq egasining kommunikativ maqsadi asosida voqelanadi. Hatto konnotativ semaga ega leksik birliklar ham nutq egasi tomonidan muayyan maqsad talabi bilan nutqqa olib kiriladi. [Курбонова, 2018 : 176]

Tadqiqotlarda uchraydigan terminlar, ya‘ni “stilistik ma‘no”, “ekspressivlik”, “pragmatik mazmun”, “semantik assotsiatsiya” va boshqalar konnotatsiyaning asosiy komponentlari, tarkibiy qismlaridir.

Konnotatsiya o‘zaro bog‘langan elementlar tizimini ifodalaydi. So‘zda u yoki bu konnotatsiya elementlarining mavjudligi uning ma‘lum sohalarida, ijtimoiy guruhlarda, umuman kommunikativ vaziyatda, so‘zlovchi tomonidan baholanishi bilan bog‘liq. Har bir so‘z - bajarayotgan vazifasi va muloqot sharoitiga ko‘ra - konnotatsiyaning u yoki bu komponentlarini aktuallashtiradi. Konnotatsiya orqali nutqning ta‘sirchanligi, obrazlilikiga erishishda muayyan pragmatik maqsad ko‘zda tutiladi. Bu maqsad tinglovchiga matnda aks etgan axborotni nafaqat ta‘sirchan va obrazli tarzda yetkazish, balki unga shu yo‘l orqali nutqiy ta‘sir ko‘rsatishni ham qamrab oladi. [Курбонова, 2018 : 167]

Konnotatsiya so‘zning o‘zi ta‘riflayotgan narsadan boshqa ma‘nosini anglatadi. So‘zlar o‘z ma‘nosidan tashqari madaniy va hissiy assotsiatsiyalar yoki ma‘nolarga ham ega. Konnotatsiya orqali badiiy adabiyotda metafora, o‘xshatish, ramziylik, jonlantirish kabi badiiy san‘atlardan foydalaniladi.

Konnotativ ma‘no doimo o‘zgaruvchan va uni aniq o‘lchash qiyin. Konnotativ ma‘no denotativ ma‘nodan farqli ravishda, nutq yoki so‘zlarning tuzilishiga bog‘liq emas. Bu xususiyat til tizimidan mustaqil bo‘lib, konnotativ ma‘noni yanada qiyinchilik bilan aniqlashga olib keladigan, murakkabroq va belgilash uchun qiyinroq bo‘lgan xususiyatga aylantiradi, denotativ ma‘no bo‘lsa, so‘zning asl ma‘nosini ifodalaydi.

Konnotatsiya ayollar nutqida, nutqning boshqa har qanday turida bo‘lgani kabi, so‘z yoki iboraning asosiy ma‘nosi bilan bog‘liq qo‘shimcha ma‘nolarni ifodalaydi. Bu qiymatlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- nutqqa alohida bo‘yoq beruvchi kichraytirish-erkalash qo‘shimchalarini qo‘llash;
- his-tuyg‘u, kayfiyat, nutq predmetiga munosabatni ifodalash (masalan, undov gaplar, hissiy bo‘yoqdor leksikani qo‘llash);
- ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalash (masalan, “*ajoyib*”, “*dahshat*” so‘zlarini ishlatish);
- nutqning ta‘sirchanligini oshirish (masalan, mubolag‘a, metaforalardan ritorik so‘roq gaplar, kuchaytiruvchi yuklamalardan foydalanish);

- intonatsiya: hayratlanish, ajablanish, g‘azablanish kabi baholovchi ohanglar ayollar nutqida ko‘proq ifodalanishi mumkin;
- noverbal vositalar: mimika, imo-ishoralar fikrlarni semantik jihatdan to‘ldirishi va kuchaytirishi mumkin;

O‘zbek ayollari nutqida konnotatsiya faol uchraydigan pragmatik hodisa hisoblanadi. U tilning barcha qatlamlarida ko‘zga tashlanadi. Fonetik hodisalar, bo‘g‘inlarning takrori, unlini cho‘zish, undoshni ayrilib talaffuz qilishda ham konnotatsiya yuzaga chiqadi. Bundan tashqari o‘xshatishlar, metonimiya, sinekdoxa kabi ma’no ko‘chishlari, leksik bo‘yoqdor so‘zlar ham ushbu ma’no yuzaga chiqishida yetakchi hisoblanadi.

Kommunikatsiyada murojaat birliklaridan tinglovchi e’tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Adresat va adresant orasida yaqinlik, hurmat, ishonch; masofa (subordinatsiya), hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlarni ifodalash uchun ham murojaat birliklaridan foydalaniladi. “Murojaat birliklari nutqda appelyativ (xitob va murojaat orqali muloqotni boshlash), konnotativ (subyektga munosabat - salbiy va ijobiy munosabatlarni ifodalash), emotiv (hissiy munosabat) funksiyalarni bajaradi. [Ахмедова, 2008 : 16-17]

“-**Hoy**, qayoqqa? – Ammam meni qo‘yib, dadam tomon talpindi”. (O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi”) “Hoy” murojaat birligi: e’tibor tortish va to‘xtatish (appelyativ), nazorat va norozilik ohangi (konnotativ), hayrat va shoshqaloqlik (emotiv) konnotatsiyalarini yuzaga keltirmoqda. Demak, murojaat birligi oddiy xitob emas, balki adresantning adresatga nisbatan hissiy va bahoviy munosabatini ham ifodalaydi.

Ayollar nutqida murojaat birliklari ko‘pincha sabr, itoat va mehr kabi konnotativ ma’nolarni kuchliroq namoyon qiladi. O‘zbek ayollari nutqida “*jonim, bolam*”, “*dadajonisi*”, “*dadasi*”, “*oyijon*”, “*akajon*”, “*ammajon*” kabi murojaat birliklari ijobiy bahoni ya’ni yaqinlik, mehr, ishonchni bildirsa, “*ey*”, “*hoy*” kabi murojaatlar salbiy baho, masofa yoki norozilikni anglatadi. Ayollar nutqida murojaat birliklari ko‘pincha metaforik xarakter kasb etadi: “*jonim*”, “*hayotim*”, “*dadajonisi*”, “*asolim*” kabi murojaatlar aslida adresantning subyektiv bahosini, yaqinlik va mehr darajasini bildiruvchi metaforalardir. Bu hodisa ayollar nutqida konnotatsiyaning psixologik-estetik qirrasini ochib beradi. Konnotatsiya va baho munosabatining ifodalanishi o‘rtasida ham uzviy bog‘liqlik mavjud. Ma’lumki, baho kategoriyasi nutq egasining ob’ektga munosabatini aks ettiruvchi kategoriyadir. Baho orqali voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalanadi. Boshqacha aytganda, nutq egasining voqelikka munosabati baho ko‘rinishida yuzaga chiqadi. Bahoni ifodalash jarayonida adresatga ta’sir ko‘rsatish vazifasi ham bajariladi. [Курбонова, 2018 : 173]

O‘zbek oilalarida kelinlar tomonidan qarindoshlarga nisbatan -jon, -xon affikslarining qo‘shib ishlatilishi tez-tez uchraydi. “*Oyijon*”, “*akajon*”, “*buvijon*”, “*ammajon*”, “*xolajon*” kabi. Bu orqali kelin qaynona, qaynota, qaynuka va boshqa qarindoshlarga nisbatan ijobiy munosabatni bildiradi. Qaynona - qaynota, qarindoshlarga -jon bilan murojaat qilish bu sun’iylik emas, balki ijtimoiy

me’yor bo‘lib, bu orqali kelin o‘zining hurmatini ko‘rsatadi. Demak, “-jon” qo‘shimchasi kelin nutqida ijtimoiy masofani qisqartirish, hurmat ma’nosini kuchliroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, murojaat birliklari vaziyatni yumshatish va ijtimoiy muvozanatni ta’minlash maqsadida ham qo‘llaniladi. Bu orqali murojaat birliklari ziddiyatni oldini olish strategiyasi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Kelinlar o‘z qarindoshlariga nisbatan esa “dada”, “oyi”, “buvi”, “opa” kabi oddiy shakllarda murojaat qiladilar. Bunda *-jon* qo‘shimchasi qo‘llanmaydi, chunki ota-ona yoki yaqin qarindosh bilan munosabat mehr, yaqinlik bevosita qondosh aloqaga asoslangan. Shuning uchun qo‘shimcha mehr-shafqatni kuchaytiruvchi vosita talab qilinmaydi.

Ayollar nutqida turmush o‘rtoqqa nisbatan “*dadasi*” va “*dadajonisi*” kabi murojaat ko‘rinishlari mavjud. Bular o‘rtasidagi konnotativ farq shundaki, birinchisi ko‘proq neytral murojaatni bildirsa, ikkinchisi esa emotsional, mehrli munasabatni ifodalovchi konnotatsiyani hosil qiladi.

Shuningdek, o‘zbek ayollari turmush o‘rtoqlari haqida gapirayotganda “*erim*”, “*xo‘jaynim*”, “*dadasi*” ba’zi hollarda “*bular*” (shevada “*bula*”), “*bu kishi*” kabi so‘zlarni ishlatadilar.

Bu so‘zlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rib chiqamiz:

- “*erim*” (neytral) ayol o‘z erini tashqi suhbatda (do‘stlariga, qarindoshlariga) nomlashda ko‘p ishlatadi.
- “*xo‘jaynim*” bunda hurmat, itoat, masofa semasi mavjud. Masalan, “*xo‘jaynim ruxsat bermaydi*”. Bu murojaatda erning uy va oiladagi mavqeini tan olish va itoatkorlik mazmuni aks etgan.
- “*dadasi*” bunda samimiy ohang kuchli. Ayol erini ota rolida ko‘rishi va unga mehr bilan murojaat qilishi seziladi. Ayniqsa, oilaviy muhitda iliqlik va yaqinlikni bildiradi.
- “*bular*” ko‘plik shaklida qo‘llaniladi, aslida bir kishi nazarda tutiladi. Bunda -lar affiksi orqali hurmat ma’nosi anglashiladi. Bu orqali muloyimlik konnotativ semasi hamda so‘zlovchi nutqiy odobiga xos xususiyat namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy madaniyat ta’sirida ayollar nutqida yangi murojaat birliklari shakllanmoqda. Masalan, turk tilidan o‘zlashtirilgan “*kocam*”, “*hayatim*”, “*aşkim*” kabi murojaatlar o‘zbek ayollari nutqida konnotativ ma’nodagi yangicha ifoda shakllari sifatida qo‘llanmoqda. Bu esa konnotatsiya hodisasining zamon va madaniyat bilan bog‘liq holda doimiy o‘zgarishda ekanini ko‘rsatadi.

Konnotatsiya til birliklarining emotsional-ekspressiv, bahoviy va madaniy jihatlarini ifodalaydigan muhim pragmatik hodisadir. O‘zbek ayollari nutqida konnotatsiya murojaat birliklari, affikslar, emotsional leksika va intonatsiya orqali faol ifodalanadi. Bu holat o‘zbek oilaviy muloqotida ijtimoiy me’yor, hurmat, mehr, masofa yoki norozilik kabi turli munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Konnotatsiyaning turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha talqin qilinishi uning pragmatik tabiatini yanada yaqqol ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент, 2008. – Б. 28.
2. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи. 1985. – Б. 51-52 б.
3. Максумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 25
4. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2018. 161-б.
5. Телия, В. Н. Типы языковых значений. Связанное значение слова в языке / В. Н. Телия. – М., 1981.
6. Барт, Р. Основы семиологии / Р. Барт // Структурализм: «за» и «против» : сб. статей. – М., 1975.
7. Леонтьев, А. Н. Потребности, мотивы, эмоции / А. Н. Леонтьев. – М., 1971.
8. Стернин, И. А. Лексическое значение слова в речи / И. А. Стернин. – Воронеж, 1985. 45-с.
9. Апресян, Ю. Д. Лексическая семантика / Ю. Д. Апресян // Избр. труды. – М., 1995. – Т. 1. С-67.
10. Верещагин, Е. М. Лингвострановедческая теория слова / Е. М. Верещагин, В. Г. Костомаров. – М., 1980.
11. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М: Наука, 1986. – С.7;
12. Ерофеева, Е. В. Вероятностная структура идиомов: социолингвистический аспект / Е. В. Ерофеева. – Пермь, 2005.
13. Ахмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликлари. Тошкент, 2008.

MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Sh.</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov B., Sharipova S. Istamova SH.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek,</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107

<i>Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O‘g‘iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning	191

	o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	
<i>Turg‘unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
<i>O‘ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G‘aybullayev Erkinjon</i>	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
<i>Turg‘unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik vositalarning o‘rni	274
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		

<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
<i>Ruzibaeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G‘ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilabaev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта изучения узбекского языка как второго	361
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga	385

	ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O‘rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443
<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O‘zbek tilidagi ayrim fe’l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova</i>	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa...	477

<i>Nargizaxon</i>		
III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo‘ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалья: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509
<i>Otamirzayeva Sug‘diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohibjamol</i>	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539

<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Ahmet Akalin</i>	Kültür taşıyıcısı olarak özbek dilinin diplomatik fonksiyonu	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Türk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboeva Khavojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581
<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Tanju Seyhan</i>	Ali şir Nevâyî ve üslubunda fiillerin yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Farhad Rahimi</i>	Nezrali’nin çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine II	611
<i>Vahidə Cəfərzadə</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640

<i>Muhammadiyeva Dilafro ‘z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo‘ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo‘janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan manbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O‘razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Görge Bay)	711
<i>Meryem Hamişoğlu</i>	Türkçenin ilk sözlüğü <i>Dîvânu lugâti't-türk</i> 'ten özbek türkçesine bitki adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obykti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O‘tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Naimaxon Siddiqova</i>	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	The stylistic, linguistic and psycholinguistic analysis of femalemale forms of address in the texts	766

	of the book of “Dede Qorqud”	
<i>Roza Turdiyeva</i>	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	775